



**OQOVA SUV VA UNI TOZALASH TIZIMI
TERMINLARINING MAVZUVIY
GURUHLARGA AJRATISH MASALASI
XUSUSIDA**

Xurramova Dilobar Muxtorovna

*Xalqaro innovatsion universitet v.b. dotsent filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**ON THE PROBLEM OF SEPARATION OF
WASTEWATER AND ITS TREATMENT
SYSTEM TERMS INTO THEMATIC GROUPS**

Khurramova Dilobar Mukhtorovna

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences, International Innovation
University*

**К ПРОБЛЕМЕ РАЗДЕЛЕНИЯ УСЛОВИЙ
СТОЧНЫХ ВОД И СИСТЕМЫ ИХ ОЧИСТКИ
НА ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ**

Хуррамова Дилобар Мухторовна

*Доцент, доктор философии (PhD) по
филологическим наукам, Международный
инновационный университет*



E-mail:

xurramovadilobar786@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0007-7420-3942>

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17759056>

Annotatsiya. Har bir davr fani o'z oldiga yangicha maqsad va vazifalarni qo'yadi, sohadagi muammo va masalalar yechimini taklif qiladi. Lisoniy ongimizda oqova tushunchasi kundalik hayotimizda, sanoat, ishlab chiqarishda foydalanilgan chiqit suv, har xil tarkibli ifloslangan suv hamda uni tozalash jarayoni va qayta foydalanish majmuidan iborat tizim sifatida gavdalanadi. Ammo oqovaning hosil bo'lish jarayoni, uning tarkibi, tozalash usullari, tozalash jarayonida foydalaniladigan usullar, har xil aralashmalar, jihoz va uskunalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ongimizda oqovaning lisoniy ifodasi ishlatilgan, iflos, ichishga va foydalanishga yaroqsiz suv sifatida, shuningdek, uni tozalab, ma'lum maqsadlarda qayta foydalanish kabilarda namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining mavzuviy guruhlarga ajratish masalasi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: oqova suv, tozalash, soha terminlari, terminologik sistema, mavzuviy guruh, lug'aviy-ma'noviy guruh.

Аннотация. Каждая эпоха науки ставит новые цели и задачи, предлагает решения проблем и вопросов в данной области. В нашем языковом сознании понятие сточных вод воплощается в нашей повседневной жизни, в промышленности, производстве, как система, состоящая из сточных вод, загрязненных вод различного состава, и комплекса процессов их очистки и повторного использования. Однако процесс образования сточных вод, их состав, методы очистки, методы, используемые в процессе очистки, различные смеси, оборудование и устройства невозможно представить. В нашем сознании языковое выражение сточных вод проявляется как использованная, грязная, непригодная для питья и использования вода, а также ее очистка и повторное использование в определенных целях. В данной статье рассматривается вопрос о разделении терминов сточные воды и система их очистки на тематические группы.



Ключевые слова: сточные воды, очистка, отраслевые термины, терминосистема, тематическая группа, лексико-семантическая группа.

Annotation. Each era of science sets new goals and objectives, offers solutions to problems and issues in the field. In our linguistic consciousness, the concept of wastewater is embodied in our everyday life, in industry, production, as a system consisting of wastewater, contaminated water of various compositions, and a complex of its purification and reuse processes. However, the process of wastewater formation, its composition, purification methods, methods used in the purification process, various mixtures, equipment and devices cannot be imagined. In our consciousness, the linguistic expression of wastewater is manifested as used, dirty, unfit for drinking and use water, as well as its purification and reuse for certain purposes. This article discusses the issue of dividing the terms wastewater and its purification system into thematic groups.

Keywords: wastewater, treatment, industry terms, terminological system, thematic group, lexical-semantic group.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarini ham mavzuviy guruhlarga ajratish, har bir mavzuviy guruhning lingvistik tabiatini ochib berish oqova suv sememasi asosida birlashuvchi terminlarning mohiyatini chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi. Zero, har bir tildagi terminlarni funksional aspektida o‘rganishda ularni mavzuviy guruhlarga ajratib tahlil qilish terminlarning semantik tabiati, funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Muayyan soha terminlarini o‘rganish, uning taraqqiyot qonuniyatlarini belgilash, tilning umumiy terminologik tizimdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida keyingi vaqtlarda ularni mavzuviy guruhlar asosida tadqiq qilishga e‘tibor qaratilmoqda. “Eng avvalo, – deb yozadi A.A.Reformatskiy, – terminologiya muayyan tilning umumiy lug‘aviy tizimi ichidagi aniq ajralib turgan va shu bilan birga, ancha sezilarli va hisoblab chiqilgan kichik tizim sifatida, o‘z navbatida mavzuviy guruhlar bo‘yicha yanada kichikroq tizimlarga bo‘linib ketadi” [4]. Albatta, bu mavzuviy guruhlar pala-partish holda emas, balki aniq talablar asosida, qat‘iy taqsimlanish asosida yuzaga keladi. “...terminologiyada shunday xususiyatni qayd etish kerakki, bu yerda so‘zlar shunchaki, ixtiyoriy tartibda emas, balki muayyan fan yoki sohaning tasnifidan kelib chiqib guruhlanadi, bu esa alohida paradigmaticani hosil qiladi...” [1]. Shunisi muhimki, tilning lug‘aviy boyligini yoxud uning bir qismini muayyan guruhlarga bo‘lib o‘rganishning o‘ziga xos ahamiyati bor. Bu haqida E.Begmatov shunday yozadi: “So‘zlarni tematik guruhlarga ajratish muayyan xalq tilida qaysi sohalarga oid leksikaning boy yoki kambag‘alligini belgilashda imkon beradi, xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, xo‘jaligi, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma’lumotlar so‘zning tematik guruhlarda ravshan ifodalanadi” [1].



O‘zbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi terminologiyasi haqida ham xuddi shunday fikr yuritish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inson faoliyati davomida turli chiqindilar hosil bo‘ladi. Shu chiqindilar ichida suyuqlari nihoyatda xavfli bo‘lib, ularning sirasidan oqova suvlar ham o‘rin olgan.

Oqova suv ma‘lum bir maqsad uchun maishiy-xo‘jalik, sanoat, turmushda va hokazolarga ishlatilishi natijasida ifloslangan suv bo‘lib, fizik-kimyoviy xususiyatlari va xossalari o‘zgartirgan, shu bilan birga, aholi turar joylaridan va sanoat korxonalarini maydonlaridan yog‘ingarchilik natijasida oqib keladigan suvlardir. Hosil bo‘lish jarayonida toza suv tarkibi xilma-xil chiqindilar bilan to‘yinadi va natijada o‘ziga xos [2] tarkibga ega bo‘ladi.

Oqova suvning hosil bo‘lishi, uni tozalash o‘ziga xos jarayon bo‘lib, texnik tasnifga ko‘ra dastlab ichki va tashqi oqova suvlarga bo‘linadi.

Ichki oqova suv – oqova suvlarni qabul qilish va ularni binodan tashqariga, tashqi oqova suv tarmoqlariga oqizish uchun xizmat qilsa, **tashqi oqova suv** esa oqova suvlarni aholi turar joyi yoki sanoat korxonalaridan tashqariga, tozalash bekatlariga oqizish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari oqovalar suvning tabiatiga ko‘ra ichimlik suvlarining ishlatilishi natijasida hosil bo‘lgan oqova suvlar, sanoat korxonalarini maydonlarida yer ostidagi suvlarni texnologik jarayon uchun tashqariga tortib chiqarish natijasida hosil bo‘lgan oqovalar, yog‘ingarchilik natijasida hosil bo‘lgan oqova suvlar turkumlariga ajratiladi [2].

Oqova suvlar chiqindilanish (ifloslanish) darajasi bo‘yicha mineral moddalar, organik moddalar, og‘ir metallar bilan ifloslangan oqovalarga bo‘linadi.

Oqova suv tarmoqlariga doimiy tushishi holatiga ko‘ra esa oqova suvlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) oqova suvlarning doimiy oqishi – maishiy-xo‘jalik va sanoat suvlari;
- 2) davriy ravishda oqova suv tarmoqlariga tushuvchi suvlar (ba‘zi hollarda uzoq uzilish bo‘lishi mumkin), ya‘ni yomg‘ir suvlari [2].

Berilgan texnik tasnifda oqova suvning tarkibi, hosil bo‘lishi, tozalash, chiqindilanish darajasi kabi xususiyat va jarayonlarga e‘tibor qaratiladi.

Oqova suv va uni tozalash tizimining tildagi lisoniy tasviri, lingvistik ideografik va mavzuviy talqinida ham ushbu obyektiv bo‘linishga tayaniladi. Oqova suv va u bilan bog‘liq terminlarni texnik mansubligiga ko‘ra tasniflash xususiy va umumiy jihatlarini yanada yorqinroq tasavvur etish imkonini beradi.



O‘zbek tilining ayrim terminologik sistemalarini o‘rganishga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar (S.Ibrohimov, R.Doniyorov, M.Abdiyev, Z.Mirahmedova, O.O‘rinova, T.Valiyevlarning ishlari)da alohida bir mavzuviy guruhni lug‘aviy-ma‘noviy guruhlarga, ya‘ni makro va mikro guruhlarga ajratishga alohida e‘tibor berilgan. Shu sababli, biz ham o‘z tadqiqot obyektimizni ma‘lum guruhlarga ajratib ko‘rsatishni ma‘qul ko‘rdik.

Oqova suv va uni tozalash tizimi sohasidagi barcha terminlar tilning terminologik tizimlaridan birini tashkil qiladi. Bu tizim, o‘z navbatida, muayyan guruhlardan, boshqacha aytganda, mavzuviy guruhchalardan tashkil topadi.

Oqova suv va uni tozalash ko‘p bosqichli murakkab tizim bo‘lganligi bois soha terminlarini ham mavzuviy guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq. “Oqova” leksemasi markaziy o‘rinni egallagan oqova suv mavzuviy tizimidagi soha terminlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

I. Oqova suvlar hosil bo‘lish joylari va chiqindilanish tarkibini ifoda etuvchi terminlar.

II. Oqova suvni tozalash jarayonini ifoda etuvchi terminlar.

III. Oqova suvni oqizish va tozalash tizimi inshootlari, jihozlari, qurilmalari bilan bog‘liq tushunchalarni ifoda etuvchi terminlar.

IV. Oqova suv tarkibi va tozalash jarayonida ishlatiladigan moddalar, suvo‘tlari nomini ifoda etuvchi terminlar.

Oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida oqova suv hosil bo‘lishi va chiqindilanish darajasi, xususiyati juda muhim o‘rin tutadi. Bu makrosistema quyidagi guruhlardan tashkil topgan.

Oqova suv hosil bo‘lish joylari nomlarini ifoda etuvchi terminlar quyidagi mikroguruhlarga bo‘linadi.

1. Maishiy-xo‘jalik oqova suv turlarini ifodalovchi terminlar.

2. Ishlab chiqarish (sanoat) oqova suv turlarini ifodalovchi terminlar.

3. Yog‘in (atmosfera) suv turlarini ifodalovchi terminlar [3].

O‘zbek tilida oqova suvni tozalash usullari bilan bog‘liq jarayonlarni ifodalovchi terminlar ham talaygina. Ushbu mikromaydon ham quyidagi terminlarni o‘z ichiga olgan kichik mikroguruhlarga bo‘linadi:

1) mexanik tozalash jarayonini ifoda etuvchi terminlar;

2) biologik tozalash jarayonini ifoda etuvchi terminlar;

3) fizik-kimyoviy tozalash jarayonini ifoda etuvchi terminlar;

4) kimyoviy tozalash jarayonini ifoda etuvchi terminlar;



5) termik (yuqori harorat ishtirokida) hamda elektrokimyoviy tozalash jarayonini ifoda etuvchi terminlar.

Oqova suvlar hosil bo'lish tarkibi va uni tozalash tizimida ishlatiladigan mineral moddalar, xomashyo, yuksak va tuban suvo'tlari nomini ifodalovchi terminlar ham soha terminlari maydonida alohida maydonni tashkil qiladi. Bu maydonni quyidagi kichik guruhlariga ajratib olamiz:

a) oqova suv tarkibidagi va tozalash jarayonida ishlatiladigan moddalar nomlarini ifodalovchi terminlar;

b) yuksak hamda tuban suvo'tlarining nomlarini ifodalovchi terminlar guruhi.

Oqova suvni oqizish va tozalash tizimi inshootlari, jihozlar, qurilmalar nomlari bilan bog'liq tushunchalarni ifoda etuvchi terminlar tizimi quyidagi terminlarni o'z ichiga oladi: *tozalash inshootlari, sanitariya jihozlari, suv chiqaruvchilar, oqovalarni oqizdirish tizimi, oqovalarni tozalash tizimi, ichki kanalizatsiya, tashqi kanalizatsiya, tozalash inshootlari, kanalizatsiya hovuzlari, nasos bekatlari, yomg'ir qabul qiluvchi tizim, ekin maydoni, filtrlash maydoni, botanik maydon, obodonlashtirish maydoni, loyqa maydonlari.*

XULOSA

Xullas, tadqiqotimiz obykti bo'lgan oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarini ham mavzuviy guruhlariga ajratish, har bir mavzuviy guruhning lingvistik tabiatini ochib berish oqova suv semasi asosida birlashuvchi terminlarning mohiyatini chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Zero, har bir tildagi terminlarni funksional aspektda o'rganishda ularni mavzuviy guruhlariga ajratib tahlil qilish terminlarning semantik tabiati, funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: 1985. – B.121.
2. Buriyev E.S, Yakubov K.A. Oqova suvlarni oqizish tarmoqlari. – Toshkent: Cho'lpon, 2014. – B. 7.
3. Djalilova A., Xamidov A., Abduqodirov M. Kanalizatsiya va oqova suvlarni tozalash. – Toshkent: Voris, 2012. – B. 6.
4. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. Проблемы структурной лингвистики. – Москва: 1968. – Б. 121-122.